

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA TABIIY FANLARNI O'QITISHDA INTEGRATSION YONDASHUV

*Abdisamatova Mohinur Abdijalil qizi*

*Termiz davlat universitetining Pedagogika instituti*

*Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

*abdusamatovamohinur1708@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida integratsion texnologiyalarni qo'llash samaralari va o'qituvchilarda bu integratsion jarayonlarga qanday yondashish kerakligi bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** Integratsiya, texnologiya, atrofimizdagi olam, biofizika, kompleks fanlar.

Hozirgi kunda boshlang'ich maktab ta'limini integratsiya qilish haqida ko'p gapirilyapti. Bu degani-kichik maktab o'quvchilari atrofidagi olamni bir butunligicha qabul qiladi. Uning uchun tabiatshunoslik, rus tili, musiqa va boshqa o'quv fanlarining nomi emas, balki, atrofidagi olam obyektlarining tovushlari, ranglari, hajmlarining turli tumanligi qiziqarlidir. Bolalarga tabiat va hayotdagi kundalik narsalarning bog'liqligini o'rgatishni bilgan holda o'qituvchi darslarni tashkil qilish kerak.

Hozirda boshlang'ich sinfda o'tilayotgan tabiiy fanlar bir necha fanlar ya'ni, o'qish, matematika, tasviriy san'at fanlari bilan integratsiya qilgan holda nashr qilingan. Shu narsadan kelib chiqqan holda o'qituvchi ham dars o'tish jarayonida yangi integrativ texnologiyalardan foydalanishi kerak. Tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida o'quvchilarni dalalarga bog'larga va so'lim joylarga olib borib, ularni tabiatdagi o'simliklar, hasharotlar bilan tanishtirib, ularning zararli va foydali tomonlarini aytib o'tish lozimdir. Bu narsa o'quvchilarda ham nazariy, ham amaliy ko'nikmalarni rivojlantiradi. Bu jarayon ham darsdagi integratsiya hisoblanadi ya'ni, ham ilmiy, ham laboratoriya mashg'ulotini bir o'quv soatiga jamlagan holda tashkil etish shaklidir.

Tabiiy fanlarni tasviriy san'at darsi bilan bog'lagan holda o'tish dars samaradorligini va sifatini oshiradi ya'ni, o'quvchilar osmon jismlarining, tabiat komponentlarining rasmini ko'rgan holda chizishi va bo'yashi orqali ularda bu mavzularni o'rganishga qiziqish uyg'onadi hamda ma'lumotlar xotiralarida uzoq vaqt saqlanishiga yordam beradi.

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni matematika bilan bog'lash ya'ni, integratsion tashkil qilish orqali darsning qiziqarliligini bir necha marta oshiradi. Bu jarayonni o'qituvchi shunday mahorat bilan tashkil etishi kerakki, o'quvchilar tabiiy fanlarni

o'rganish paytida 1 soat necha daqiqa bo'lishini, 1 yilda necha kun borligini ham o'rganib borishlari lozim. Bu degani bir soatlik o'quv soati davomida o'quvchi ham matematik hisob-kitoblarni, ham tabiatga oid bilim va ko'nikmalarni bilib olishlari zarur deganidir.

Darslarni bunday bir- biriga bog'lagan holda dars o'tish o'quvchilarda jo'shqinlik, fanlarni o'rganishga qiziqish hissini kuchaytiradi, o'quv fanlari bo'yicha bilim darajasini oshiradi, ularning aqliy faoliyatini rivojlantiradi. Darsda o'quvchilarda ongli qiziqish faoliyati, mustaqil fikrlash qobiliyati rivoj topadi; ularda o'quv faniga nisbatan shaxsiy munosabatda bo'lish, ijodkorlik hissi shakllanadi. Integratsiyalashtirilgan darsda ta'lim-tarbiya uzviyligi ham bir butun holda amalga oshadi. O'quv fanlarini uzviylikda va bir-biriga aloqa qilgan holda o'rganish o'quvchilar bilimini mustahkamlashning muhim omili sifatida, o'quv tarbiya jarayonining ham uyg'unlikda bo'lishini taqozo etadi.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish kerakki, darslarni integratsiyalashning asosiy maqsadi boshlang'ich maktabdayoq o'quvchilarda tabiat va jamiyat haqida tasavvur asoslarini qo'yish va ularning rivojlanish qonunlariga o'z munosabatini shakllantirishdir. Mana shuning uchun kichik maktab o'quvchisiga predmet yoki voqea hodisalarni har tomonlama ya'ni, mantiqiy va emotsional tomondan, badiiy asar tarafdin, rassom va musiqachi nuqtayi nazaridan ko'rishini shakllantirish uchun ishlar olib borilmoqda. Bu ishlarning barchasi jamiyatimizning rivojlanishi va taraqqiy etishining strategik yo'li hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Rahima Mavlonova, Nargiza Rahmonqulova. "Boshlang'ich ta'limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya". Oliy o'quv yurtlarining boshlang'ich ta'lim fakultetlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. /G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2013
2. Risboy Jo'rayev, Asqar Zunnunov. "Ta'lim jarayonida o'quv fanlarini integratsiyalash". Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun qo'llanma. /"Sharq" nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent-2005.
3. A. Musurmanova, N. Isaqulova, M. T. Jumaniyozova, A. Sh. Jumaev. O'quv qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim agentligining 2019-yil 394/059-sonli buyrug'iga asosan chop etildi.
4. Panjiyev, J. (2023). ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA TARQATMA MATERIALLARNI RASMLAR ASOSIDA TASHKIL ETISH. *Interpretation and Researches*, 2(1).

5. Jurakul PANJIEV. (2023). IMPROVEMENT OF ECOLOGICAL CONCEPTS IN PRIMARY CLASS STUDENTS BASED ON INTEGRATION OF SCIENCES. *World Bulletin of Social Sciences*, 27, 84-89.
6. Jurakul PANJIEV. (2023). PRIMARY CLASS CONTENT OF MATERIALS ON IMPROVING THE STUDENTS' ECOLOGICAL CONCEPTS BASED ON THE INTEGRATION OF THE SCIENCES. *World Bulletin of Social Sciences*, 27, 90-95.
7. Jurakul Panjiev. (2023). PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF INTEGRATION OF MODERN PRIMARY EDUCATION LESSONS. *Academia Repository*, 2(11), 37–45.
8. Nilufar BOYNAZAROVA. (2023). NATURE AND HUMAN HARMONY IN PERSONAL MORAL DEVELOPMENT. *World Bulletin of Social Sciences*, 27, 6-9. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3219>
9. Nilufar Boynazarova. (2023). ISSUES OF ENVIRONMENTAL PROTECTION AND FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE OF PRIMARY CLASS STUDENTS. *World Bulletin of Social Sciences*, 27, 10-12. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3220>